IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
Jurayev Xusan Atamuratovich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	904
Koliyova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbanov Xayrilla	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукажхоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович	
XORIJYIY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	946
Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT	984
Ibragimova Saodat Abdumom'inovna	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI.....	995
Davlatova Ozoda Olmos qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1001
Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi	
BOZORNI SEGMENTATSIYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI	1006
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI	1010
Sharifboyev Bunyod Azamat o'g'li, Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna	
TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI	1016
Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	1020
Ходжаева Наргизахон Анатолиевна	
FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT	1028
Aziza Ibroximova	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	1035
Boboraxmatova Shohsanam Ibdullo qizi	
MAHALLIY JUN TOLALARINING GEOMETRIK VA FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI NOTO'QIMA MATOLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI NUQTAI NAZARIDAN TADQIQ ETISH	1039
Ermatov Shavkat Qulmatovich, Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA)	1043
A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva	
TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV	1051
Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich	
O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1057
Rafikova Kamila Baxtiyorovna	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLIYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI	1063
Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLİYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	1070
Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich	
AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	1077
Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li	
BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.....	1083
Karimov Shoxrux Boydulla ugli	
DIGITALIZATION, RESEARCH CAPACITY AND HIGHER EDUCATION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: AN ARDL-ECM ANALYSIS (2000-2024)	1087
Ismailova Nilufar	
TURIZMDA TALAB VA TAKLIFNI BAHOLASH USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1094
Suyunov Alijon Jumaboy o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДОХОДАМИ И РАСХОДАМИ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ	1099
Аймухаммедова Амина Какажановна	



“O‘ZMILLIYBANK” AJDA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASI HOLATI TAHLILI	1105
Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich	
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1110
Qodirov Bekzod Xomidjonovich	
FARMATSEVTIKA SANOATINING ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI IQTISODIY-STATISTIK USULLARI ORQALI TAHLILI	1115
O‘taganova Umida Egamberdi qizi	
MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O‘RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1123
Rafiyeva Madina Xusinovna	



MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O'RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI



Rafiyeva Madina Xusinovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrası o'qituvchisi
E-mail: rafiyevamadina292@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada mamlakatimizda xotin-qizlar o'rtasida mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Xotin-qizlar tadbirkorligining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish yo'nalishida davlat tomonidan yaratilayotgan huquqiy, moliyaviy va institutsional shart-sharoitlar yoritilgan. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida uchrayotgan ayrim muammolar aniqlanib, ularni samarali hal etishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari xotin-qizlar bandligini kengaytirish, ularning iqtisodiy faolligini oshirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar tadbirkorligi, mahalliy tadbirkorlik, bandlik, kichik biznes, davlat qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiy rivojlanish, YaIM, iqtisodiy o'sish, xalqaro bozor.

Abstract. This scientific article analyzes current issues in the development of local entrepreneurship among women in the country. The socio-economic significance of women's entrepreneurship is examined, along with the legal, financial, and institutional conditions created by the state to enhance women's participation in entrepreneurial activities. Key challenges in the development of local entrepreneurship are identified, and practical recommendations aimed at improving its effectiveness are proposed. The research findings contribute to expanding women's employment opportunities and supporting regional economic development.

Key words: women's entrepreneurship, local entrepreneurship, employment, small business, state support, economic development, GDP, economic growth, international market.

Аннотация. В данной научной статье анализируются актуальные вопросы развития местного предпринимательства среди женщин в стране. Раскрывается социально-экономическая значимость женского предпринимательства, а также правовые, финансовые и институциональные условия, создаваемые государством для расширения участия женщин в предпринимательской деятельности. Выявлены основные направления дальнейшего развития местного предпринимательства и разработаны практические рекомендации по повышению его эффективности. Результаты исследования способствуют расширению занятости женщин и укреплению регионального экономического развития.

Ключевые слова: женское предпринимательство, местное предпринимательство, занятость, малый бизнес, государственная поддержка, экономическое развитие, ВВП, экономический рост, международный рынок.

KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida tadbirkorlik faoliyatini, xususan, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xotin-qizlarning iqtisodiy jarayonlardagi faol ishtiroki nafaqat ularning ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga,



balki mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda aholi turmush darajasining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shu bois, xotin-qizlar o'rtasida mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar jarayonida xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, hududlarda mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, oilaviy biznesni yo'lga qo'yish va kichik biznes subyektlari sonini ko'paytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayon ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, kambag'allikni qisqartirish hamda ayollarning jamiyatdagi rolini yanada kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy baza izchil takomillashtirildi, imtiyozli kreditlash tizimi kengaytirildi, grant va subsidiyalar ajratish mexanizmlari joriy etildi. "Ayollar daftari", "Har bir oila – tadbirkor", "Kambag'allikni qisqartirish" kabi dasturlar doirasida minglab xotin-qizlar o'z biznes faoliyatini boshlash va kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shu bilan birga, xotin-qizlar o'rtasida mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda bozor infratuzilmasini yanada rivojlantirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi xotin-qizlar uchun mahalliy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish salmoqli iqtisodiy imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda, ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun qo'shimcha institutsional va tashkiliy qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Mazkur holat ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish va ularni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan, xotin-qizlar o'rtasida mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini o'rganish, mavjud imkoniyat va muammolarni aniqlash hamda ularni samarali hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda xotin-qizlar tadbirkorligi iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida baholanib, uning bandlikni oshirish, kambag'allikni qisqartirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi roli alohida ta'kidlanadi [1].

Mahalliy tadqiqotlarda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda davlat siyosatining o'zni, normativ-huquqiy asoslar va institutsional mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan. Jumladan, bir qator mualliflar O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qabul qilingan farmon va qarorlar ularning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilayotganini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [2]. Shu bilan birga, tadqiqotlarda hududiy tafovutlar, ayniqsa qishloq joylarda tadbirkor ayollarning imkoniyatlari cheklanganligi muammo sifatida ko'rsatib o'tiladi [3].

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda xotin-qizlar tadbirkorligi masalasi gender tenglik va barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida o'rganiladi. Xususan, Jahon banki va BMT Taraqqiyot Dasturi tadqiqotlarida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish iqtisodiy inklyuzivlikni ta'minlashning muhim vositasi sifatida baholanib, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari hamda ta'lim darajasi asosiy determinantlar sifatida e'tirof etiladi [4]. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish ayollar tadbirkorligi uchun yangi imkoniyatlar yaratayotgani ta'kidlanadi [5].

Mahalliy mualliflar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda biznes ko'nikmalari, moliyaviy savodxonlik darajasi va bozor infratuzilmasining yetarli darajada shakllanmaganligi asosiy to'siqlar sifatida qayd etilgan [6]. Ayrim tadqiqotlarda oilaviy tadbirkorlik va mahalliy hunarmandchilikni rivojlantirish orqali xotin-qizlar bandligini oshirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangan [7,8,9].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlar o'rtasida mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lib, u davlat siyosati, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ta'lim tizimi va infratuzilma omillari bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur tadqiqot ushbu omillarni kompleks tahlil qilish orqali mavjud ilmiy bo'shliqlarni aniqlash va ularni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada ilmiy tadqiqotlar olib borish jarayonida grafik tahlil, statistik va tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, abstrakt va mantiqiy fikrlash, shuningdek analiz va sintez usullaridan keng foydalanildi. Mazkur metodlar tadqiqot obyektni har tomonlama o'rganish, mavjud holatni tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish jarayoni bir nechta ustuvor yo'nalishlar va mexanizmlarga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat hamda nodavlat tashkilotlari tomonidan qator strategik chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Ushbu chora-tadbirlar moliyaviy qo'llab-quvvatlash, normativ-huquqiy muhitni takomillashtirish, ta'lim va maslahat xizmatlarini kengaytirish hamda hududiy infratuzilmani rivojlantirish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda davlat siyosati muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlar xotin-qizlarni kichik biznesga jalb etish, ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash va maslahatchilik xizmatlari bilan qamrab olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Jumladan, "Ayollar daftari" va "Har bir oila – tadbirkor" dasturlari doirasida minglab xotin-qizlar o'z biznes faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlar tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini ta'minlash, moliyaviy va ijtimoiy himoya mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlardan foydalangan xotin-qizlarda tadbirkorlik faoliyati nisbatan barqaror bo'lib, moliyaviy yordamdan foydalanmagan ayollarga nisbatan sezilarli ijobiy farq kuzatiladi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish uchun xotin-qizlar orasida biznes-rejalashtirish, moliyaviy hisob-kitob va marketing bo'yicha bilimlarni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida xotin-qizlar tadbirkorligi asosan quyidagi yo'nalishlarda rivojlanmoqda:

- xizmat ko'rsatish sohasi – ta'lim, maktabgacha ta'lim, parvarish va sog'liqni saqlash xizmatlari (32%);
- hunarmandchilik va tikuvchilik – an'anaviy hunarmandchilik, kiyim tikish va mahsulotlarni qayta ishlash (21%);
- savdo va chakana savdo faoliyati – mahalliy va onlayn bozorlarda savdo (18%);
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash – uy sharoitida ishlab chiqarish va kichik fermer xo'jaliklari (14%);
- turizm va mehmondo'stlik xizmatlari – mehmonxona, ovqatlanish va ekskursiya xizmatlari (7%);
- boshqa kichik biznes yo'nalishlari – dizayn, hunarmandchilikni zamonaviylashtirish va xizmat ko'rsatishning boshqa shakllari (8%).

Mazkur yo'nalishlarning ustunligi xotin-qizlar tadbirkorligining mahalliy resurslarga tayanganligi, kam kapital talab etishi hamda uy sharoitida faoliyat yuritish imkoniyatlari bilan izohlanadi. Ayniqsa, qishloq joylarda hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash xotin-qizlar bandligini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari xotin-qizlar tadbirkorligi rivojlanishida hududiy farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Shahar hududlarida tadbirkorlik faoliyati jadal rivojlanayotgan bo'lsa, qishloq joylarda bozor infratuzilmasining cheklanganligi, transport va logistika imkoniyatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda raqamli savodxonlik darajasining pastligi ayrim qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, qishloq hududlarida hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida nisbatan yuqori daromad olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu mahalliy iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, xotin-qizlarning atigi 27 foizi raqamli platformalardan faol foydalanmoqda. Biroq raqamli savodxonlikni oshirish va onlayn savdo imkoniyatlaridan foydalangan tadbirkor ayollarda daromad barqarorligi va raqobatbardoshlik darajasi yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Shu sababli, raqamli texnologiyalar va elektron savdo platformalaridan foydalanishni rag'batlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda malaka oshirish va treninglar muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari biznes-rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv, marketing va elektron savdo bo'yicha bilimlarga ega bo'lgan xotin-qizlar tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli boshlash va rivojlantirish imkoniyatiga ko'proq ega ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, biznes-inkubatorlar va maslahat xizmatlari xotin-qizlarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarning yetarli emasligi;
- bozor infratuzilmasi va marketing imkoniyatlarining cheklanganligi;
- qishloq joylarda logistika va transport tizimining rivojlanish darajasi pastligi;
- raqamli savodxonlik darajasining pastligi va onlayn savdoga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Davlat siyosati, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ta'lim va konsalting xizmatlari, raqamli platformalardan foydalanish hamda hududiy infratuzilmani rivojlantirish o'zaro uyg'un holda amalga oshirilishi lozim. Bunday yondashuv



xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish orqali ularning bandligini oshirish, mahalliy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va mamlakat iqtisodiy o'sishiga sezilarli hissa qo'shish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi sharoitida xotin-qizlar o'rtasida mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, jumladan, moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari, normativ-huquqiy chora-tadbirlar hamda ta'lim va konsalting xizmatlarini kengaytirish xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayon xotin-qizlar bandligini oshirish, oilaviy daromadlarni ko'paytirish va mahalliy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot davomida xotin-qizlar tadbirkorligining asosiy yo'nalishlari aniqlanib, ularning asosan xizmat ko'rsatish sohasi, hunarmandchilik, savdo hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga yo'naltirilgani aniqlandi. Ushbu yo'nalishlar xotin-qizlar uchun boshlang'ich kapital talabining nisbatan pastligi, mahalliy resurslarga tayanishi va uy sharoitida faoliyat yuritish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, qishloq joylarda hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi yo'nalishlari xotin-qizlar bandligini oshirish bilan birga, hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash tadbirkorlik faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari imtiyozli kreditlar va subsidiyalar olgan xotin-qizlar tadbirkorlik faoliyati moliyaviy yordamdan foydalanmagan ayollarga nisbatan barqarorroq va samaraliroq ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samaradorligi biznes-rejalashtirish, moliyaviy savodxonlik va marketing ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Bu holat xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda kompleks qo'llab-quvvatlash yondashuvining zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari hududiy tafovutlarning mavjudligini ham ko'rsatdi. Shahar hududlarida xotin-qizlar tadbirkorligi nisbatan keng rivojlangan bo'lsa, qishloq joylarda bozor infratuzilmasining yetarli darajada shakllanmaganligi, transport va logistika imkoniyatlarining cheklanganligi hamda raqamli savodxonlik darajasining pastligi ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, qishloq hududlarida hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkor ayollarda daromad barqarorligi va o'z-o'zini ta'minlash imkoniyati yuqoriroq ekanligi kuzatildi.

Raqamli texnologiyalar va onlayn savdo platformalari xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli platformalardan faol foydalanayotgan xotin-qizlar o'z mahsulotlarini keng auditoriyaga yetkazish hamda bozor sharoitida raqobatbardosh faoliyat yuritishda yuqori natijalarga erishmoqda. Shu sababli, raqamli savodxonlikni oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish xotin-qizlar tadbirkorligini yangi bosqichga olib chiqishning muhim omili hisoblanadi.

Asosiy muammolar sifatida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarning yetarli emasligi, bozor va marketing bilimlarining cheklanganligi, hududiy infratuzilma va logistika imkoniyatlarining yetishmasligi hamda raqamli savodxonlik darajasining pastligi aniqlangan. Ushbu muammolarni bartaraf etish orqali xotin-qizlar tadbirkorligini yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud. Shu maqsadda moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ta'lim va konsalting xizmatlari bilan uyg'unlashtirish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish, maxsus biznes-inkubatorlar tashkil etish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari xotin-qizlar o'rtasida mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va bandlikni oshirishning samarali vositasi ekanligini ko'rsatadi. Kompleks va tizimli qo'llab-quvvatlash yondashuvi orqali xotin-qizlar tadbirkorligi nafaqat ularning shaxsiy farovonligini oshiradi, balki mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimova D.Sh. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari // Iqtisodiyot va innovatsiyalar ilmiy jurnali. – Toshkent, 2022. URL: <https://inlibrary.uz>
2. United Nations Development Programme (UNDP). Women's Economic Empowerment Strategy. – New York: UNDP, 2022. URL: <https://www.undp.org>
3. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Women Entrepreneurship and Digital Transformation. – Paris: OECD Publishing, 2023. URL: <https://www.oecd.org>
4. Abdullayeva M.A. Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari // Ilmiy-amaliy tadqiqotlar jurnali. – Toshkent, 2023. URL: <https://journal.tsue.uz>
5. Ismoilova N.N. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ayollar bandligini ta'minlash masalalari // Moliya va iqtisod ilmiy jurnali. – Toshkent, 2024. URL: <https://moliyaiqtisod.uz>
6. Maksumova Umida Sadikjonovna. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligi dinamikasi: ijtimoiy-falsafiy jihatlar. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Farg'ona, 2025. URL: <https://api.ziynet.uz/uploads/books/10001253/6KC1lu974vMtwET.pdf>



7. Axmedova Dilbar Bo'ronovna. Xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2023. URL: <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/7007/6458d743e6076.pdf>
8. World Bank. Women, Business and the Law 2021. – Washington, DC: World Bank Group, 2021. URL: <https://www.worldbank.org/en/programs/women-business-and-the-law>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>